

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARDA IJTIMOIIY ONGNI RIVOJLANTIRISHDA O'YIN PEDAGOGIKASINING ROLI

Xudoy nazrova Zulayho Sohibnazar qizi

*Guliston davlat universiteti "Psixologiya va ijtimoiy fanlar" fakulteti
tayanch doktoranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ijtimoiy ongni rivojlantirishda o'yinga asoslangan pedagogik yondashuvlar tahlil qilinadi. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'qish, yozish va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish, shuningdek, ijtimoiy masalalarga nisbatan tanqidiy fikrlashni shakllantirish muhim o'rin tutadi. O'yin pedagogikasi orqali o'quvchilar o'z fikrlarini erkin ifoda etish, hamkorlikda ishlash va muammoli vaziyatlarga kreativ yechimlar topishni o'rganadilar. Maqolada integrativ yondashuvlar, tanqidiy-tahliliy fikrlash va o'quv jarayonida ijtimoiy ongni rivojlantirishning samarali mexanizmlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy ong, o'yin pedagogikasi, tanqidiy fikrlash, integrativ yondashuv, boshlang'ich ta'lim, ijodiy fikrlash, o'quv jarayoni, ta'lim metodlari.

РОЛЬ ИГРОВОЙ ПЕДАГОГИКИ В РАЗВИТИИ СОЦИАЛЬНОЙ СОЗНАТЕЛЬНОСТИ У МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ

Аннотация: В данной статье анализируются подходы к развитию социальной сознания у учащихся начальной школы на основе игровых методов. В учебном процессе важно развивать навыки чтения, письма и творческого мышления, а также формировать критическое мышление по отношению к социальным вопросам. Через игровую педагогику учащиеся учатся свободно выражать свои мысли, работать в сотрудничестве и находить креативные решения в проблемных ситуациях. В статье рассматриваются интегративные подходы, критико-аналитическое мышление и эффективные механизмы развития социальной сознания в учебном процессе.

Ключевые слова: Социальное сознание, игровая педагогика, критическое мышление, интегративный подход, начальное образование, творческое мышление, учебный процесс, методы обучения.

THE ROLE OF GAME PEDAGOGY IN DEVELOPING SOCIAL AWARENESS IN EARLY SCHOOL STUDENTS

Annotation: This article analyzes the approaches to developing social consciousness among primary school students through game-based pedagogical methods. In the educational process, it is essential to enhance reading, writing, and creative thinking skills, as well as to foster critical thinking regarding social issues. Through game pedagogy, students learn to express their thoughts freely, collaborate, and find creative solutions to problematic situations. The article discusses integrative approaches, critical-analytical thinking, and effective mechanisms for developing social consciousness in the educational process.

Keywords: *Social consciousness, game pedagogy, critical thinking, integrative approach, primary education, creative thinking, educational process, teaching methods.*

KIRISH. Boshlang'ich ta'lim jarayoni o'quvchilarning o'qish, yozish, sanash va o'quv faoliyatining asosiy malaka va ko'nikmalarini egallashlariga, ijodiy fikrlash xislatlarini rivojlantirishga, shuningdek, o'zini-o'zi nazorat qilish, nutq va xulq-atvor madaniyatini, shaxsiy gigiena va sog'lom turmush tarzi asoslarini o'rganishlariga qaratilgan. Bugungi kunda boshlang'ich ta'lim mazmuni va sifatiga zamonaviy talablar qo'yilmoqda. Bu talablar doirasida davlat me'yoriy hujjatlari (Boshlang'ich ta'lim bo'yicha nizomlar, konsepsiyalar, Davlat ta'lim standartlari va ularga mos o'quv dasturlari) ishlab chiqilgan.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar 1-4 sinf davomida bitta o'qituvchi tomonidan o'qitilishi maqsadga muvofiqdir. Bu yondashuv o'quvchilar ongiga muayyan ma'lumotlarni singdirishda uzviylikni ta'minlaydi hamda o'quvchilarning o'zlashtirish jarayonini rejalashtirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada, oddidan murakkabga (osondan qiyinga) qarab bayon qilinayotgan ma'lumotlarni o'rganish uchun mustahkam didaktik asoslar yaratiladi.

Ta'lim va tarbiya jarayonida o'quvchilarda ijtimoiy ongni rivojlantirishning maqsadi "O'quv jarayonining g'oyalari" bilan mazmunan mos keladi. O'quvchilarni tahliliy o'qishga, yangi fikrlarni paydo qilishga, ijodkorlikning elementlarini rivojlantirishga undash, o'qishni faqat o'quv fanlarini o'rganish jarayoni deb emas, balki fikrlashni rivojlantirish, dunyoni bilish va tafakkur qamrovini yuksaltirishning asosiy poydevori deb bilish zarur.

Tanqidiy-tahliliy fikr yuritishga undash pedagogik yondashuv, o'quvchilarni fikrlarini o'zaro baham ko'rishga da'vat etish, ularning faolligini oshirishga xizmat qiladi. Fikrlash jarayonini tashkil etish davomida o'quvchilarning fikrlari va o'z tanqidiy tahlillari qimmatli ekanligini ularning ongiga singdirish muhimdir. O'qituvchi o'quvchilardan muayyan materialni shunchaki qayta ishlashni talab qilganda, tayyor qoliplardan va andozalardan foydalanmasligi lozim. Bu yondashuv o'quvchilarda o'z g'oyalari va fikrlarining qimmatini anglashga yordam beradi.

O'quvchilarning o'z fikrlarining qimmatbaho ekanligiga ishonch hosil qilishlari va masalalarni muhokama qilish jarayonida o'z hissalarini tan olishlari ularning ijtimoiy ongini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, o'quvchilarga o'z fikrlari va tasavvurlarining qimmatini ko'rsatish, ularni muhokama qilish jarayonida faol ishtirok etishga undash orqali ijtimoiy ongni rivojlantirishda o'yin pedagogikasining roli katta bo'ladi. Ushbu yondashuvlar orqali boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijtimoiy ongini rivojlantirishning samarali mexanizmlari yaratiladi, bu esa ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Muhokama jarayoni o'quvchilarning bir-birlari bilan fikr almashishlarini nazarda tutadi. O'zaro fikr almashishda o'quvchilardan diqqat bilan tinglash, o'z qarashlari tizimini boshqalarga majburan o'tkazmaslik va boshqa ishtirokchilarning fikrlarini tuzatmaslik talab etiladi. Bunga javoban o'quvchilar boshqalarning umumiy fikrlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Keng doiradagi munozara natijasida o'quvchilar o'zlariga tegishli g'oyalarni tahlil qilish va aniqlash qobiliyatini oshiradilar, shuningdek, o'z bilimlari va hayotiy tajribalaridan kelib chiqib yaratilgan g'oyalarni tizimga kiritadilar.

Umuman olganda, o'quvchilarning tanqidiy-tahliliy fikrini rivojlantirish, maktablardagi o'quv-tarbiya jarayonida kamol toptiruvchi va tarbiyalovchi prinsiplarga asoslanadi. Bu jarayon o'quvchilarning o'zini o'zi boshqarishiga yordam beradi va natijada, ularning ijtimoiy ongini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Tanqidiy-tahliliy fikrlashda g'oyalar va ularning ahamiyati ko'p fikrlilik nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi va boshqa g'oyalar bilan taqqoslanadi. Bu fikrlashning eng yuqori darajasi bo'lib, unda tahlil, taqqoslash, izohlash, qo'llash, tortishuv, yangilik, muammolarni hal qilish yoki fikrlash jarayonini baholashga alohida e'tibor qaratiladi. Tanqidiy-tahliliy fikrlash muloqot va guruh bilan ishlash malakalarini rivojlantiradi. Tanqidiy-tahliliy fikrlashni rivojlantirish uchun quyidagi shartlar zarur:

- O'quvchida o'ziga xos nuqtai nazarni shakllantirish;
- Bir fikrdan boshqasining afzalligini asoslash mahorati;
- Murakkab muammolarni yechish mahorati;

- Bahsni dalillab olib borish va yagona fikrni ishlab chiqish uchun birgalikda ishlash mahorati;
- Qarashlar va tasavvurlarga hayotiy tajribaning ta'sirini tushunish;
- Tanqidiy fikrlash tajribasini orttirishga vaqt va imkoniyat berish.

O'quvchilarda tanqidiy-tahliliy fikrlashni rivojlantirish oson jarayon emas. Bu jarayon ma'lum bir yosh davrida tugallanishi yoki esdan chiqarilishi mumkin emas, shuningdek, tanqidiy fikrlashga olib boradigan tugallangan yo'l ham mavjud emas. Tanqidiy-tahliliy fikrlash tajribasini egallash uchun o'quvchilarga vaqt va imkoniyat berish zarur. Ya'ni, o'quvchilarga fikr yuritish uchun imkoniyat yaratish, turli g'oya va fikrlarni qabul qilishga tayyor bo'lish va o'quv jarayonida faollikni ta'minlash lozim. Har bir o'quvchining tanqidiy fikr yuritishga qodir ekanligiga ishonch hosil qilish va tanqidiy fikrlashning yuzaga kelishini qadrlash muhimdir. Tanqidiy-tahliliy fikrlash o'quvchilarning ijtimoiy faolligi bilan bevosita bog'liqdir. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning faol ishtiroki va ta'limga bo'lgan mas'uliyatga tayyorligi, tanqidiy-tahliliy fikrlash strategiyalarini o'zlashtirishda kutilgan natijalarni beradi. Ushbu jarayon o'quvchilarning ijtimoiy ongini rivojlantirishda o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lib, o'qituvchilarga o'quvchilarni faol muloqotga jalb qilish imkonini yaratadi.

Integrativ yondashuv o'quv-tarbiya jarayonida o'quvchilarda mantiqiy tafakkur, turli tushunchalar, voqea-hodisa va buyumlar o'rtasidagi bog'liqliklarni tushunishga yordam beradi. Bu jarayon ijtimoiy hayotda kuzatuvchanlik, tahlil va sintez qila olish ko'nikmalarini shakllantiradi hamda mustahkamlaydi. O'quvchilar integrativ darslar davomida qarama-qarshiliklarni aniqlash, muammoli vaziyatlarga kreativ yechimlar topish va o'z nuqtai nazarini bildirishni o'rganadilar. Jamiyat hodisalarining barcha vositalari va aloqalarida ko'rish qobiliyati dialektik tafakkurning muhim jihatlaridan biri hisoblanadi.

Integrativ darslarning yana bir muhim jihati shundaki, ular o'quvchilarning kelgusida ma'lum fan tarmog'ini chuqur o'rganish yoki kasbni egallashida muhim bilimlar asosini shakllantiradi. O'quv fanlarining dolzarb mavzular bilan boyitilishi, shuningdek, ularga ilmiy yondashuv orqali yetkazilishi fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga olib keladi.

NATIJA VA TAKLIFLAR. Kichik maktab yoshidan o'quvchilarda o'qishga sog'lom, kuchli va ta'sirchan motivatsiyani shakllantirish, kasb tanlash va kasbiy o'sishni mustaqil rejalashtirishda integrativ yondashuv amaliy xarakterga ega. Zamonaviy innovatsion jamiyat talablariga muvofiqlikni ta'minlash maqsadida umumta'lim davlat ta'lim standartlari tizimini muntazam takomillashtirish, ijtimoiy ong shakllarining rivojlanishi, globallashtirish jarayonlari va jamiyatdagi voqealarni mazmunga singdirish muhimdir.

Jahon pedagogikasida bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lmagan fanlar asosida tuzilgan o'quv dasturlaridan voz kechish va o'quv fanlari sonini optimallashtirish an'anaga aylanib bormoqda. O'quv jarayonida voqealarga ongli munosabat o'quvchilarning ijtimoiy ongini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. O'quvchilarning biror faoliyatga, voqelikka yoki holatga munosabat bildirishi va bu munosabatning tahlili ularning refleksiv ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

O'qituvchi tomonidan o'quv dasturida belgilangan mavzular asosida yangi ma'lumotlar tushuntiriladi. O'quvchilarning yangi mavzuga oid hayotiy tajribasi eng foydali manba hisoblanadi. O'quv jarayonini ko'rgazmali tashkil qilish, eshitish va ko'rish orqali o'quv materiallarini idrok qilish, ularni ongli va puxta o'zlashtirish diqqatni barqarorlashtiradi va bilimlarning turmushdagi zaruratini anglashga yordam beradi. O'qituvchining vazifasi darsda tafakkur va faoliyat turlarini to'g'ri uyg'unlashtirishdir. Bunday uyg'unlik dars samaradorligini oshirishning muhim omilidir. O'qituvchi dars muammolariga to'g'ri yondashish uchun ta'lim jarayonining asosiy komponentlarini bilishi, ularni o'zaro bog'liqligini va bir-biriga ta'sirini tushunishi lozim. Ob'ektiv borliqning mavjudligi va mohiyatini bilish ta'limning maqsadlaridan biridir.

Ushbu yondashuvlar orqali kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ijtimoiy ongni rivojlantirishning samarali mexanizmlari yaratiladi, bu esa ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi. Ta'lim jarayonida bilimlarni o'zlashtirishning asosiy komponentlari quyidagilardan iborat: hodisalarni va narsalarni kuzatish, axborotlarni idrok etish, olingan axborotlarni tahlil qilish, eslab qolish va umumlashtirishning to'g'riligini tekshirish hamda

baholash. O'quvchilarning bilimlarni ongli o'zlashtirishi mavjud faktlarga asoslangan materiallarni to'g'ri tushuntirishdan boshlanadi. Bunda faktlar haqiqatni anglashning "xom ashyosi" sifatida xizmat qiladi, shuning uchun o'quvchilar bu faktlar orqali turli xil xulosa va mazmunlar chiqarishi mumkin.

Ijtimoiy masalalarga oid mavzularda faktlarning talqini muhim ahamiyatga ega, aniq fanlarda esa faktlarga asoslanish zarur. Shuningdek, faktlar voqea va hodisalarning ob'ektiv mohiyatini to'laqonli ochib berishi lozim. O'quv jarayonida o'qituvchi faktlarga ishlov berib, mos keluvchi metodlar va vositalar orqali o'quvchining milliy manfaatlariga mos keluvchi ijtimoiy ongi bilan birgalikda e'tiqodini rivojlantirishga erishadi. Boshqa tomondan, anglangan bilimga formal bilim qarshi turadi. Formal bilimlar ma'no va amaliy ahamiyatini tushunmasdan takrorlanadigan, hayotda foydalanib bo'lmaydigan uzuq-yuluq fikrlardir. O'quvchilarda ilmiy dunyoqarash, ishonch-e'tiqod va ma'naviy g'oyalarni shakllantirishda ijtimoiy ongni shakllantirish metodlari keng qo'llaniladi. Ushbu metodlarga tushuntirish, uqtirish, ishontirish, o'git-nasihat, maslahat berish, iltimos va istak, buyruq va talab, axloqiy suhbat va munozara kiradi. Bu usullar o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirish va hayot mazmunini tushunib olishlariga ko'maklashishda katta ahamiyatga ega.

"O'rganishga o'rgatish" tamoyili doirasida, o'qituvchining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarni o'rganishga o'rgatishdir. Ijtimoiy ong shakllari tahlilidan ko'rinib turibdiki, o'quvchilar o'rganishi lozim bo'lgan narsalar va tushunchalar cheksizdir va ularni ta'lim-tarbiya jarayonida qamrab olish imkoniyati mavjud emas. Shu nuqtai nazardan, o'quvchilarni ongli, samarali, ijodkorona va mas'uliyat bilan mehnat qilishga, "o'qib-o'rganish zavqi va uning shaxsiy intellektual kapitaliga" aylanishini his qilishga o'rgatish lozim.

Ijtimoiy ongni rivojlantirishda o'qituvchi har bir o'quvchining maksimal faolligini va fikrlay olish qobiliyatini rivojlantirish shakllarini izlashi zarur. Buning uchun ularning qiziqishlarini orttiruvchi ko'rgazmali qurollar, topshiriqlar va yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash yuzasidan ish olib borishi kerak. O'qituvchi o'quvchilarning hayoti, ularni o'rab turgan real borliq bilan bevosita bog'liq original

va qiziqarli vaziyatlarni topishi muhimdir. O'quv fanlari esa muloqot qilish va o'zaro fikr almashish vositasi bo'ladigan shart-sharoitlarni yaratish zarur.

Ushbu jarayonlar orqali o'quvchilarda ijtimoiy ongni rivojlantirishga qaratilgan o'yin pedagogikasining roli yanada muhim ahamiyat kasb etadi. O'yin pedagogikasining yordamida o'quvchilar ijtimoiy hayotning turli jihatlarini o'rganish, tajriba orttirish va o'zaro muloqot orqali faol ishtirok etishga o'rganadilar. Bunday faoliyatlar o'quvchilarda ijtimoiy ongni shakllantirishga va rivojlantirishga xizmat qiladi.

XULOSA. Umuman olganda, o'quvchilarga turli g'oya va fikrlarni qabul qilish imkoniyatini yaratish, o'quv jarayonida faol qatnashishga undash, biror vaziyatga o'z fikr va munosabatini bildirish uchun ijobiy muhit yaratish va har bir o'quvchining shaxsiyatini hurmat qilish ijtimoiy ongni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarda ijtimoiy ongni rivojlantirish uchun pedagogik yondashuv o'z-o'ziga ishonchni mustahkamlashga, o'z g'oya va fikrlarining ahamiyatini anglashga va mulohazalarini shakllantirishga yordam beradi. O'yin pedagogikasi o'quv jarayonida ijtimoiy ongni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi, chunki u o'quvchilarga yaratuvchanlik va ijodkorlikni namoyon etish, o'zaro muloqotda faol ishtirok etish va jamiyatdagi turli ijtimoiy vaziyatlarga nisbatan tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. O'yinlar orqali o'quvchilar o'z fikrlarini erkin ifoda etishga, boshqalar bilan fikr almashishga va murakkab muammolarni yechishda innovativ yondashuvlarni qo'llashga o'rganadilar. Shu bilan birga, ijtimoiy ongni rivojlantirish jarayonida o'qituvchining roli juda muhimdir. O'qituvchilar o'quvchilarning fikrlarini tinglash, ularni qo'llab-quvvatlash va ijobiy muhitni yaratishda faol ishtirok etishlari zarur. Bu yondashuvlar o'quvchilarda o'z fikr va g'oyalariga nisbatan ishonchni oshirishga, ijtimoiy mas'uliyat hissini shakllantirishga va kelajakda faol va ma'suliyatli fuqarolar sifatida o'zlarini namoyon etishga yordam beradi. Natijada, o'quv jarayonida o'yin pedagogikasining ahamiyati faqat bilimlarni o'zlashtirish bilan cheklanmaydi, balki o'quvchilarda ijtimoiy ongni rivojlantirishda ham muhim rol o'ynaydi. O'quvchilar o'zaro hamkorlikda ishlash, ijodkorlik va ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish orqali o'zlarini yanada mukammal shaxs sifatida shakllantiradilar. Bunday yondashuvlar

ularda kelajakda muvaffaqiyatli ijtimoiy hayot kechirish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va qobiliyatlarni rivojlantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ayxodjaeva M. O'quvchilarni o'rganishga o'rgatish kerak: "Boshlang'ich ta'limda integratsiyaviy-innovatsion yondashuvlar" mavzusida o'tkazilgan respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 2019 yil 6 may. –T.: TDPU, 2019. – 12 b.
2. Oxunov I.A. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ijtimoiy ongni rivojlantirishning pedagogik shartlari, Таълим ва инновацион тадқиқотлар (2022 йил № 3), ISSN 2181-1709 (P), 93-96 b.
3. Ibragimov X., Abdullaeva Sh. Pedagogika nazariyasi. –T.: Fan va texnologiya, 2008. – 107 b.
4. Nazarov Q. Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi. –T.: Ijod dunyosi, 2002. – 5 b.
5. To'raqulov X.A., To'raqulova I.X., Oslanova K.S. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-bilish faoliyatini yuksaltirishning innovatsion texnologiyalari. –T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2020. -37 B.
6. To'raqulov X.A., To'raqulova I.X., Oslanova K.S. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-bilish faoliyatini yuksaltirishning innovatsion texnologiyalari. –T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2020. -37 b.
7. Nafasov, G., Xudoyqulov, R., & Usmonov, N. (2023). DEVELOPING LOGICAL THINKING SKILLS IN MATHEMATICS TEACHERS THROUGH DIGITAL TECHNOLOGIES. Евразийский журнал технологий и инноваций, 1(5 Part 2), 229-233.
8. Xudoynazarova Z.S. Kommunikativ kompetentlikni o'stirish: muammo va yechimlar, "New renaissance international scientific journal" ResearchBib IF-2023: 11.01, ISSN: 3030-3753, Volume 1 Issue 7 ISSN: 3030-3753. VOLUME 1, ISSUE 2, 195-199 b.
9. Xudoynazarova Z.S. Talabalarda kommunikativ kompetentligini rivojlantirishga innovatsion yondashuvlar, "Zamonaviy ilm-fan ta'lim istiqbollari" ilmiy amaliy konferensiya materiallari. <https://doi.org/10.5281/zenodo.13831594>, 128-131 b.
10. Xudoynazarova Zulayho Sohibnazarovna. (2024). INNOVATIVE APPROACHES TO THE DEVELOPMENT OF COMMUNICATIVE COMPETENCE IN STUDENTS. <https://doi.org/10.5281/zenodo.13831594>
11. Khudaynazarova Z.S. The role of pedagogical technologies in improving the quality of education, ACADEMIC RESEARCH IN MODERN SCIENCE International scientific-online conference, 29-31 page.